

## KIBER MAKON, KIBER TERRORIZM, KIBER ZO'RAVONLIK (CYBERBULLYING) TUSHUNCHALARINING MOHIYATI

*Azamova Sitora Ayonovna*

*SHDPI Ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi*

*Saloxiddinova Feruza*

*SHDPI. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bugungi globallashuv davrida kibermakon, kiber terrorizm va kiber zo'ravonlikning jamiyat rivojiga ta'siri va uning tahlili, fuqarolarning kibermakondagi bugungi ahvoli, hamda ularning ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati, shuningdek kibermakon haqidagi tariflar, ushbu makonning xususiyatlari, ularning yoshlar ongiga ta'siri haqida fikrlar yuritiladi*

**Kalit.so'zlar:** *kiber makon, kiber terrorchilik, kiber ijtimoiylashtirish, kiber maydon, superkorporatsiya, virtualmaydon, global tarmoq, kiber hujum, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar.*

Kibermakon kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydonini ifodalovchi voqelik sifatida 1990 yildan boshlab keng miqyosida rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Kibermakon tushunchasini dastlab kanadalik yozuvchi Uilyam Gibson 1982 yil «Sojjenie Xrom» («Burning Chrome»)35 nomli hikoyasida yozadi. Keyinchalik, Gibsonning 1990 yilda yozib tugatgan «Neuromancyer» («Asabli manzaralar tasvirlovchisi», «Nervo-sochinitel») nomli texno-utopik fantastik trilogiyasida qo'llagan. Bu asardagi kibermakon tushunchasi millionlab odamlarning jamoaviy sarob, xayolparastlikning o'ziga xos ko'rinishi sifatida tasvirlangan. Bu erda jamoaviy sarob yoki xayolparastlik inson ongida sub'ektiv psixologik holat sifatida namoyon bo'ladi. Kibermakon-bu havo, quruqlik, dengiz va hatto kosmosdan mustaqil bo'lgan va aloqa infratuzilmalaridan foydalanadigan virtual muhitdir. Bu chegaralarni olib tashlaydigan va masofalarni yo'q qiluvchi muhitdir. Pentagonning ta'rifi ko'ra,

kibermakon mustaqil axborot tarmoqlari muhitidagi global maydondir. Ushbu maydon, Internet, telekommunikatsiya, tarmoqlar, kompyuter tizimlari, o'rnatilgan protsessorlar va kontrollerlarni o'z ichiga olgan axborot texnologiyalari infratuzilmasidir. Kibermakon, jismoniy makon emas. Balki, ham reallik, ham virtual reallik holatiga ishora qiladi. Aniqroq aytganda, jismoniy dunyodagi og'zaki yoki vizual aloqa turlarini raqamli mediaga o'tkazishdir. Insonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va aloqanita'minlagan holda vaqt va makondan xolidir. Boshqacha qilib aytganda, bir-biridan uzoqda joylashgan kompyuter tarmoqlaridagi individlarning o'zaro ta'siriga kirishishi uchun imkon beradigan elektron tarmoqdir. G'oyaviy, mafkuraviy ta'sir ko'rsatish mumkin bo'lgan ziddiyatlar va internet orqali o'zaro hamkorlikning aks etish jarayonidagi makon va maydo va maydondir. Siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhablar o'rtasidagi fikrlashuvlar bahs, munozaralardan kelib chiqib, ziddiyatli, qonli to'qnashuv, ommaviy qirg'inlarga, odamlar boshiga qayg'u-kulfatlar solayotgan maydondir. Yana bir og'ir jihati shundaki aholi orasida turli xil platformalar ,o'yin dasturlariga pul tikish orqali, oson pul topish ilinjida insonlar o'z uyidan nafaqat oilasidan jamiyatdagi nufuzidan ayrilmoqda. Global tarmoq natijasida yuzaga kelgan eng katta muammo, bu, albatta, qaramlik, tobelik kasalligidir. Bugungi kunda nafaqat yoshlar balki kattalar ham ko'p vaqtini inernetda o'tkazishlari global muammoga aylanib ulgurgan Umuman, internetga qaramlikning eng og'ir jihati real olamni, insoniylik burchi ,umuminsoniy hislar va vazifalarini unutishdir. Inson haqiqiy hayotda yashashi, halol mehnat qilishi, ilm olishi, zimmasidagi vazifalarini sidqidildan bajarishi, elu yurtiga fidoyilik bilan xizmat qilishi, atrofdagilarga foyda keltirishi zarur. Hozirgi davrda fan, texnika va asosan kompyuter taraqqiyoti mahsuli bo'lgan kibermakon orqali din niqobidagi ijtimoiy va ma'daniy buzg'unchilikni sodir etishga bo'lgan urinishlar tobora kuchayib bormoqda. Kiberterrorchilik tuzilmalari o'z g'arazli maqsadlari yo'lida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga urinmoqdalar. Ijtimoiy nuqtai-nazardan kibermakon deganda kompyuter tarmog'i orqali bir-biri bilan bog'langan va bir vaqtning o'zida turli geografik nuqtada kesishuvchi har qanday

mavjud kompyuterning grafik sifatidagi ma'lumotlariga o'ralashib qolgan kishilar jamoasi tushuniladi kibermakon yoshlarni shu darajada o'zigaqaram qilib bormoqdaki, buningoqibatida ayniqsabyoshlar ommaviy ma'daniyatning turli xil ko'rinishlarini, yurishturishi, o'zining ijtimoiy tarmoqda ko'z-ko'z qilib muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Kibermakondagi onlayn hayot,online qimor, virtual do'stlar yoshlarimizni vaqtini behuda sarflashlariga olib kelmoqda. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning muammolario'zgarishsiz katta muammo bo'lib qolmoqda. Yoshlar, internetda yashaydigan xavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishning zarurati va muhimligini tushunishlari kerak.Ushbu holatlarning oldini olish uchun o'quv tizimlarida katta o'zgarishla kiritish, onlayn ta'limning kengaytirilishi, virtual o'qituvchilar va o'quv dasturlari yaratish imkoniyatini oshirishzarur. Bu, yoshlarning o'zvaqtlarini boshqarishlariga, o'zlashtirish va o'rganish jarayonlarini individual ravishda boshqarishga imkonberadi.Kibermakondagi turli hujum va hurujlar, yoshlar ongi va xatti-harakatlariga, ayniqsa yosh, va axborot texnologiyalari bilan parallel ravishda rivojlanayotganlarga shubhasiz ta'sir ko'rsatadi. Yoshlarni kiber-ijtimoiylashtirish masalalari inson va axborot muhitining zich kundalik o'zaro ta'siridan kelib chiqadigan barcha ijobiy va salbiy ta'sirlarni batafsil o'rganishni, tortishni talab qiladi.Yoshlarni virtual ijtimoiy muloqotga jalb qilish, turli kiber-resurslarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish muammolari bo'yicha zamonaviy mahalliy va xorijiy tadqiqotlarning nazariy tahlili asosida shaxsni sotsializatsiya qilish hodisalarini farqlash, kiber-sotsializatsiya turlari va darajalarini aniqlash, yoshlarning ijobiy v salbiy kiber-sotsializatsiyasining asosiy mezonlarini ishlab chiqish zarur. Ushbu holatlar bilan birga, kiberko'ngillar yoshlar uchun zaruri va muhim bo'lgan kiber-xavf va muammolarga qarshi himoya usullarini o'rgatish va rivojlantirishga ham e'tibor berishi kerak. Yoshlarga yaratilayotgangan imkoniyatlardan foydalanish va ularning kiber-xavf va muammolarga qarshi xavfsizlik bilimlari v tajribalarni o'rgatish katta ahamiyatga ega. Shuningdek, otanalar, o'qituvchilar va tajribali yetakchi yoshlarni shunchaki kiberko'ngillarni foydalanishiga yo'naltirish,ularning ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-

quvvatlash va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishni o'rgatishlari kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida ham 2017-2021 yillarda Respublikamizni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishning eng muhim vazifalaridan biri "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Elektron hukumat tizimi Ilmiy texnika taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan virtual tizimdir. Bu farmon orqali elektron hukumatni takomillashishi ko'plab sohadagi muammolarning hal bo'lishida yordam beradi. Hozirda oquvchi-yoshlarning vaqti interne orqali virtual olamda otmoqda. Virtual olam jonsiz olam bolishi mumkin, ammo uning ta'sir real olamga ham o'z ta'siri o'tkazadi. Virtual reallik asta-sekin konstant reallik bilan aynanlik hosil qiladi. Masalan: oquvchi virtual reallik jangari oyinni o'ynab undagi qahramoni turli usullar bilan raqiblarini yengadi, bu har qanday vahshiy yo'l bilan bo'lmasin virtual reallikda bola buni amalga oshiradi (qahramoni orqali). Endi bu bola real hayotda ham xuddi shunday qilmasligiga kafolat yo'q. Kiberterrorizm (lot, cyberterrorism; cyber-"kiber", terro –"qorquv", "dahshat") – zamonaviy, ilg'or texnologiyalar, kompyuter va boshqa imkoniyatlardan foydalangan holda yovuz kishilarning o'zining g'araz niyatlariga erishishdan iborat. Hozirgi davrda fan, texnika va asosan kompyuter taraqqiyoti mahsuli bo'lgan kibermakon va uning boshqaruvchi qiyofasi «superkorporatsiya» texnologiyalarning insoniylikdan begonalashuvi natijasida din niqobidagi ijtimoiy va madaniy buzg'unchilikni sodir etishga bo'lgan urinishlar tobora kuchayib bormoqda. Jumladan, bugungi kunda kiberterrorchilik tuzilmalari o'z g'arazli maqsadlari yo'lida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga urinmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch» asarida quyidagicha ta'kidlangan: «Taassufki, ba'zan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g'arazli maqsadda ularni teng qo'yish kabi holatlar ham ko'zga tashlanmoqda. Shu bilan

birga, islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g‘o‘r yoshlarni o‘z tuzog‘iga ilintirib, bosh-ko‘zini aylantirib, ulardan o‘zining nopok maqsadlari yo‘lida foydalanmoqda. Bunday nojo‘ya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning sha‘niga dog‘ bo‘lishini, oxir-oqibatda esa ma‘naviy hayotimizga salbiy ta‘sir ko‘rsatishini barchamiz chuqur anglab olishimiz va shundan xulosa chiqarishimiz zarur». «Kibermakon»da din niqobidagi «kiberhujum»lar tahdidi: din niqobi ostidagi ekstremistik say haratlarda asosan davlat to‘ntarilishi va xunrezlik urushlari haqida gap boradi. Jumladan, bugungi kunda dunyoda eng katta xavf solib turgan IShID guruhining internet kibermakonidagi axborot hujumi va tahdidini keltirib o‘tish mumkin. Ularda IShID go‘yo Islom yo‘lida «qurbon» bo‘layotgani aks etgan videolavhalar va fotosuratlar joylashtirilgan. Terrorchilarning targ‘ibot-tashviqotlari kun sayin avj olib bormoqda. «Odnoklassniki», «Facebook», «Instagram», «Twittey», «VKontakte» ijtimoiy tarmoqlarida buzg‘unchilik va yot g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi yuzlab guruhlar mavjudligi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki: Kibermakon — bu informatsion texnologiyalar yordamida yaratilgan va global tarmoq orqali ulanish imkonini beruvchi virtual muhitdir. U insonlar, tashkilotlar va davlatlar o‘rtasida axborot almashish, ma‘lumotlar uzatish va aloqalar o‘rnatish uchun muhim platformadir. Hozirgi kunda kibermakonning rivojlanishi va uning ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy ta‘siri jahon miqyosida e‘tibor markazida bo‘lib, bu sohada yangi qonunlar, texnologiyalar va strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Globalashuv davrida zamonaviy texnologiyalarning tez sur‘atlarda o‘sishiga qaramay, ba‘zan foydalanuvchi ulardan oqilona foydalanish qanday kechishi kerakligini to‘liq anglab yetmaydi. Yoshlarni kibermakon va internetdan chalg‘itish harakati zamirida aslida boshqa bir muammo, ya‘ni kattalarning bu masalada nisbatan savodsiz ekani hammamizga ma‘lum. Biroq agar ular o‘zlari avval texnologiyalar savodsizligi masalasiga jiddiyroq yondashib, uni bartaraf etishsa, maqsadga muvofiq bo‘lardir. Shubhasiz, internet bilim va kerakli axborotni olish uchun ulkan

imkoniyatlar yaratadi, biroq tarmoqqa joylashtiriladigan katta hamjdagi axborotning barchasini ham ishonchli va foydali deb bo'lmaydi. Bu ma'lumotlarning to'g'riligini aniq ajrata bilishi uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi.

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1.Strategy, Lance (1999). "Kiber makon turlari ta'rifi va delimitatsiyasi muam molari".G'arbiy aloqa jurnali.

2.Hanifa Haydarova "DINSHUNOSLIK"o'quv qo'llanma

3.G.Karimova ,Vertual olam va tarbiya masalalari.

4..Mishenko .V.A.Profilaktikainternet zavisimostisti studentov vuza s razniymi tipam [09.12.2024 10:48]

5. Omonov B. N., Ochilova G. A., Azamova S. A. SPECIFIC

CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT IN

UZBEKISTAN //World of Scientific news in Science. – 2023. – T. 1. – №. 3. –

C. 15-28., [09.12.2024 10:48]

6 Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF

ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL

CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF

ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.

7. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF

ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL

CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF

ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.

8 Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK

MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida

tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.

9 Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK

MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida

tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.

10 Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida

tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.

11 Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN

SCIENCE, RESEARCH AND

DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.

12. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA

VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.

13. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.